

ALISHER NAVOIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Tursunova Dilbar Zafarovna, JDPI Pedagogika nazariyasi va tarixi 2bosqich magistaranti.

Annatatsiya: Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning shaxs kamolotida ta’lim-tarbiyaning roli va ahamiyati haqida fikr bildirilgan. O’qituvchi-murabbiy faoliyati, uning kasbiy va shaxsiy sifatlari e’tirof etilgan bo’lib, ishda asosiy o’rganish obyekti sifatida “Mahbub ul-qulub” asari olingan.

Kalit so’zlar: ustoz-murabbiy, komillik, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, ma’rifat, barkamol inson, shaxs kamoloti, mакtab, ma’naviy meros.

O’tmishdagi buyuk mutafakkirlarning dono fikrlari, o’gitlari, tafakkur mevalari, ijodiy yutuqlarini o’rganish xalqimizning ma’naviy dunyosini kengaytirish bilan bir qatorda, yosh avlodning barkamol inson bo’lib yetishishida muhim vositalardan biri sanaladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Sharq murafakkirlaridan biri, o’zbek adabiyotining zabardast siymosi, komil inson kuylovchisi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosini o’rganish, undan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish har bir pedagogning vazifasi hisoblanadi. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g’ururi ,sha’n –u sharafini dunyoga tarannum qilgan o’lmas so’z sa`natkoridir. Ta`bir joiz bo’lsa , olamda turkey va forsiy tilde so’zlovchi biron bir inson yo’qli , u Navoiy sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa , “Agar bu ulug’ zotni avliyo desak , mutafakkirlarning mutafakkiri, shoир desak, shoirlarning sulton ”, I.A .Karimov

Buyuk alloma, shoир Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo’lsa ham, o’zining bu haqidagi fikrlarini deyarli barcha ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Alisher Navoiyning ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g’oyalari bosh o’rinda turadi. Uning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiyning barcha asarlari yoshlar tarbiyasi uchun muhim xazina hisoblanadi. U o’z asarlarida har bir so’zdan unumli va o’rinli foydalana olgan. Har bir hikmati biz uchun ibratlidir. Alisher Navoiyning hayoti va merosi yoshlarda umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashda bizga har tomonlama namuna bo’ladi. Ulug’ shoир o’zining ta’lim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalari bilan barkamol avlod tarbiyasiga katta hissa qo’shdi, umuminsoniy fazilatlar to’g’risidagi fikrlari hozirgi davrimiz uchun ham muhimdir. Har bir o’qituvchi-

pedagog faoliyat yuritar ekan, berayotgan ta’lim-tarbiyasining yanada samarali bo`lishi uchun o`z ustida muttasil ishlashi, bilimini, mahoratini o`sirishi, o`quvchilar bilan bo`ladigan munosabatlarni puxta o`ylab, ularning ko`ngliga ozor yetkazmasdan ish olib borishi lozim. Muomala madaniyati, o`zini tuta bilishini nazorat qilishi kerak. Har bir tarbiyachining dunyoqarashi uning muomalasida namoyon bo`ladi. Muomalaning asosiy vositasi – tildir. Xalqimizda shunday naql bor “Bola – shirin so`zning gadosi”. Shunday ekan, tarbiyachi muomala jarayonida juda ehtiyyotkor bo`lishi maqsadga muvofiqdir. Alisher Navoiy muomala qiluvchi shaxsning mahorati haqida shunday deydi: “Shirin so`z ko`ngillar uchun bamisolasi asaldir”. Shuning uchun ham o`qituvchi har on nutq madaniyatiga qattiq e’tibor berishi, o`zining psixologik, estetik, jismoniy, axloqiy jihatlarini namuna holatda namoyon etishi muhim. O`qituvchi o`zining pedagogik faoliyatida to`g`riso`z bo`lishi, ishlarniadolat bilan olib borishi kerak. Bu xislat tarbiyachi bilan o`quvchi o`rtasida yaqinlikni oshiradi, chunkiadolat insonlar xulqini baholovchi muhimmezondir. Hazrat Alisher Navoiy aytganidek: “Loaqal bir harf o`rgatgan ustozning haqqini yuz ming ganj-u xazina bilan ham uzib bo`lmaydi”. Biz ulardan umrbod qarzdormiz. Alisher Navoiy yoshlarga chuqur bilim berish uchun muallimlar, mudarrislar va ustoz-murabbiylarning o`zlarini ham bilimli va tarbiyali bo`lishi zarurligini uqtiradi. U nodon mutassib johil domlalarni tanqid etadi va o`qituvchi ma`lumotli, o`qitish yo`llarini biladigan muallim bo`lishi zarur, deydi. Masalan, “Mahbub ul-qulub” asarida maktabdorlar haqida fikr yuritar ekan, ularni o`ta qattiqko`l, jo-hil va ta`magirliliklarini qoralaydi. Darhaqiqat, johil muallimlar gunohsiz yosh bolalarga jafo qiluvchidir. U yosh bolalarni azoblashga, kaltaklashga o`rgangan, g`azabli, qoshi chimirilgan, gunohsizlar bilan achchiqlanishga odatlangan. Ularning ko`pchiligida ko`ngil qattiqligi va ta`b xastaligi oshkor. Buning ustiga ular aql kamligiga ham giriftor. Ular qiyash yo`li bilan bolalar ko`nglini o`zlariga rom qilmoqchi va kichkintoylarning beqaror tabiatini do`q-po`pisa bilan tartibga solmoqchi bo`ladilar. Ulardagi ko`rinib turgan qo`pollik, yosh bolalardagi kelishmagan xattiharakatni silliqlashga yirik egovdir. Ular ishi odam qo`lidan kelmas, odam emas, balki dev qila olmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qiladi. Lekin ustoz bolaga ilm va odob o`rgatadi. Darhaqiqat, mu-allim bu kabi hollarda yuzlab mashaqqat chekadi. Shu jihatdan olganda bolalarda uning haqi ko`p, agar shogird ulg`aygach podshohlik martabasiga erishsa ham o`z muallimiga qulluq qilsa arziydi. Ayni o`rinda o`qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta`kidlab o`tadi: “Uning ishi odam qo`lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to`da bolaga ilm va adab o`rgatadi, ko`rkim bunga nima yetsin. Shunisi ham borki, u to`dada fahm-farosati ozlar

bo`ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo`ladi. Har qanday bo`lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko`pdir. Alisher Navoiy inson tafakkuri, aqli, bilimini va ilmiy bilimlarini yuksak qadrlagan. U “Bilimva donishmandlik insonning bezagidir”, deb yozadi. Alisher Navoiy farzand tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, tarbiyalanuvchini “hayot chirog‘i” deb ta’riflaydi. Farzand oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyodir. Uning fikricha, shaxsga kichik yoshligidanoq bilim, ma’lumot va tarbiya berishlikni ko‘rsatib, o‘g‘il-qizlarni 6 yoshdan tarbiyachiga, muallimga berish lozim, deb hisoblaydi. Shuningdek, Navoiy hayotda o‘zilmiga amal qilish, o‘rganganlarini hayotga tadbiq etish masalasiga alohida e’tibor beradi. Masalan, u “Mahbub ul-qulub” asarida ilm o‘qib uni ishlatmagan kishi, shudgor qilib dehqonchilik qilmagan yoki urug‘ sochib hosildan baha olmaganga o‘xshaydi, deydi.

Ilm o‘qib qilmagan amal maqbul,

Dona sochib ko‘tarmadi mahsul.

Olim bilim olishda barcha fanlarni o‘rganishni targ‘ib etadi. Bunda u olim-u fozillarni yig‘ib, ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga e’tibor beradi. Alisher Navoiyning fikricha, bilimlarni tinmay uzlusiz o‘rganish zarur, bunda har qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tish muhimligini, qunt bilan ishslash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan kurash, uni oxirigacha yetkazish, chidam va sabot bilan o‘rganishni ta’kidlaydi. Demak, buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o‘z davrida to‘g‘ri ifodalab, hatto ta’lim tizimini belgilab beradi: ya’ni Alisher Navoiy ta’lim tizimini o‘z davrida o‘quv muassasasi, madrasalarda o‘qish, olim, hunarmand, san’atkorlarga shogird tushib yoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etadi. Alloma yoshlarga chuqur bilim berishda muallimning, mudarrislar hamda ustoz murabbiylarning o‘zlarini ham bilimli va tarbiyali bo‘lishi zarurligini uqtiradi. Bunday muallimlar shogirdlarni yonida yuzlari yorug‘ bo‘lib, doimo izzatda, hurmatda bo‘ladilar, deb ta’kidlaydi. Shunday qilib, biz Alisher Navoiyni pedagog-mudarris deb atashimiz mumkin. Chunki ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor berib, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko‘rsatib o‘tadi. U ta’limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib olgan buyuk pedagogdir. Chunki boqiy hayotga intilgan Navoiy fikricha, dono inson o‘zining kuch-quvvatiga aql-u zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong‘ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo‘lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko`rsa-tadigan olim sifatida ta’riflaydi. Bu fikrni “Nazm ul-javohir” asarida:

Kim olim esa nuqtada barhak de oni,

Gap bazm tuzar bihishti mutlah de oni,

Har kimsaki yo‘q ilmga anga ahmoq de oni,

Majlisdaki ilm bo`lsa uchmas de oni.

Yoki ilmli, aqli odam o`z maqsadiga erishish uchun har qanday qiyinchilikka ham chidaydi, kim ilmni o`ziga tayanch qilib olsa, u hech qachon qoqilmaydi, xor bo`lmaydi va ilmnning vazifasi inson baxt-saodatiga xizmat qilishdir, deb ta`kidlaydi.Demak, Alisher Navoiy o`zining badiiy asarlari bilan bir qatorda ta`limiy–axloqiy asarlarida o`zi orzu etgan komil insonga xos axloqiy fazilatlari deb qanoat,adolat, saxovat, himmat, muruvvat, vafo, to`g`rilik, rostgo`ylik va boshqalarni tushungan, ana shu xislatlar tarkib topgan insonga yomonlik razillik bo`lmasligi, bunday inson yashagan jamiyat ham ravnaq topishi, barcha xalq baxt-saodatga erishish mumkin, deb hisoblagan.Alisher Navoiy odamlarni axloqli va odobli bo`lishga da`vat etadi hamda hamda axloqni bunday ta`riflaydi . “Ahloq shaxsning og`ir baqolig` libosidir va libos jismning sangin debosi . Shuning bilan birga odamni bezaydigan ham axloqdir ” Alisher Navoiyhikmatlaridan olam –olam ma`no mujassamdir . Uning hikmatlarida ilm –ma`rifat , mehr – oqibat , insoniylik kabi masalalar markaziy o`rinni egallaydi .

Birov kim qilsa olimlarga ta`zim ,

Qilur go`yoki payg`ambarga ta`zim .

Shoir olim ahlini qadrlaydi , ulug`laydi . Olimlarga ta`zim qilish – payg`ambarga ta`zim qilish bilan barobar ekanligini ta`kidlaydi .

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari, uning ta`limiy-axloqiy qarashlari pedagogik fikr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.Allomaning pedagogik qarashlari o`zidan oldin o`tgan olimlarning bu boradagi ilg`or ta`limotiga, shuningdek, komil insonni tarbiyalashga oid an'anaviy Sharq xalqlari ta`lim-tarbiya yo`riqlariga asoslanadi.Alisher Navoiy ta`lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko`rsatadi. U ta`limda ilmiylikka asoslanganlik tarixiylik kabi talablarni asos qilib oladi. O`z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi.

Adabiyotlar ro`yxati

Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat –yengilmas kuch . T Ma`naviyat ,2008 y Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami.Yigirma jildlik. 16-jild. T.: “Fan” , 2000. B. 26.

Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami.Yigirma jildlik.14-jild.T.: “Fan” , 1998. – B. 83.

Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub.Asarlar. O`n besh jildlik. 13-jild.– T.: “Badiiy adabiyot” nashriyoti, 1966. – B. 189-190

- Rahmatova, F. (2020). THE WAYS OF UTILIZING PROBLEMATIC STUDY IN ENHANCING THE MATHEMATICAL MIND OF THE UPCOMING PRIMARY EDUCATION TEACHERS. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2021). Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг математик тафаккурини ривожлантиришда интерфаол таълим методларидан фойдаланиш. Журнал инновации в начальном образовании, 2(3).
- Rahmatova, F. (2020). METHODS OF INNOVATION TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATION. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). Main Features of Mathematical Subjects at Primary Schools. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS IMPROVING MATHEMATICAL THINKING. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). ТАЛАБАЛАРНИНГ МАТЕМАТИК ТАФАККУРИНИ ЎҚСАЛТИРИШДА АҲБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ИМКОНИЯТЛАРИ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ УМЕНИЙ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКИ ПОСРЕДСТВОМ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). Математика фанини ўқитишнинг дидактик таъминоти. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). Математик тафаккурни такомиллаштиришда матнли масалалардан фойдаланишда узлуксизлик тамойилининг аҳамияти. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). СОЗДАНИЕ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ ОБЛАСТИ ТВОРЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). Талабаларда математик тафаккурни шакллантириш омиллари. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-6.
- Rahmatova, F. (2021). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarning ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish yunalishi bo'yicha faoliyat. Журнал инновации в начальном образовании, 2(3).
- Rahmatova, F. (2021). O'quvchilarni ma'nnaviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi. Журнал инновации в начальном образовании, 2(3).
- Rahmatova, F. (2021). The Formation Of Research Competencies Of Future Primary School Teachers. Журнал инновации в начальном образовании, 1(Архив № 2).
- Rahmatova, F., & Abrorxonova, K. (2021). Educational issues in the works of enlightened intellectuals. Журнал инновации в начальном образовании, 1(Архив № 2).

- Rahmatova, F. (2020). БЎЛАЖАК БОШЛАНФИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛАНТИРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ. Журнал инновации в начальном образовании.
- Maxamatova, F. (2020). Таълим-тарбия самарадорлигини оширишда ота-она ибрат намунаси. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Maxamatova, F. (2020). Педагогика фанини ў?итиш жараёнида муоммоли ў?итиш технологияларидан фойдаланиш. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Maxamatova, F. (2020). Оилада фарзанд маънавий тарбиясига ру?ий таъсирлар. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Maxamatova, F. (2020). Sog'lom oilaviy muhitni himoya qilishning qonuniy asoslari. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Maxamatova, F. (2020). Современные тенденции" учитель-ученик" в системе непрерывного образования: проблемы и решения. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Maxamatova, F. (2020). Развитие страхования в инновационной сфере. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Safaraliyevna, M. F. (2021). Pedagogical bases of formation of readiness of students to work. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 528-531.
- Safaraliyevna, M. F. (2021, January). PEDAGOGICAL BASES OF INVOLVEMENT OF STUDENTS IN LABOR EDUCATION. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 290-296).
- Safaraliyevna, M. F. (2021, January). PEDAGOGICAL BASES OF INVOLVEMENT OF STUDENTS IN LABOR EDUCATION. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 290-296).
- Uktamova, U., & Berdiyorova, S. (2020). THE ROLE OF COMMUNICATION IN PEOPLE'S RELATIONSHIPS AND WAYS OF LEARNING TO COMMUNICATE. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Uktamova, U. (2020). KICHIK MAKTAB YOSHIDA QOBILIYATNING PSIXOLOGIK TAVSIFI. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Uktamova, U. (2020). Ў?увчиларга маънавий-ахло?ий тарбия бериш ор?али экологик маданиятини шакллантириш. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Berdiyorova, S., & Uktamova, U. (2020). РОЛЬ ОБЩЕНИЯ ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ ЛЮДЕЙ И СПОСОБЫ ОБУЧЕНИЯ К ОБЩЕНИЮ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Uktamova, U. (2020). АГРЕССИВНОЕ ПОВЕДЕНИЕ НА РАЗВИТИЕ ВЗГЛЯДОВ ДЕВУШЕК. EurasianUnionScientists, 1(10 (79)), 45-47.

- Uktamova, U. (2020). ОИЛАВИЙ ЗЎРАВОНЛИКНИНГ КЕЛИБ ЧИ?ИШ САБАЛари. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).
- Сунатуллаевна УУ (2021 г., январь). ТАЛАБА КИЗЛАРДА ТАЗЫИК ВА ТАДЖОВУЗГА КАРШИ ДУНЁКАРАШНИ ШАКЛАНТИШ. В евразиатских конференциях (Том 1, № 1, стр. 504-508).
- Уктамова, У. (2020). ЁШЛАР ФАОЛИЯТИНИ БУНЁДКОР ?ОЯЛАР БИЛАН БАНД ?ИЛИШ МУАММОСИ. Архив Научных Публикаций JSPI .
- Davurova, G. (2020). Pedagogika oliv o'quv yurti talabalarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda psixologik xizmatni tashkil etish. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Davurova, G. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЕ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Davurova, G. (2020). Komil inson masalasining psixologiyada tadqiq etilishi. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rasulova, D. (2020). YOSH OTA-ONALARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK BILIMLARINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Davurova, G. (2020). O'ZLASHTIRISHI QIYIN BO'LGAN KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).
- Xamrayeva, N. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЯ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Davurova, G. (2020). O'ZLASHTIRISHI QIYIN BO'LGAN KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).
- Qayumov, A. (2020). SYSTEM-TECHNOLOGICAL APPROACH TO SPIRITUAL AND AESTHETIC EDUCATION IN THE STUDY OF PEDAGOGICAL DISCIPLINES. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Qayumov, A. (2020). ДУХОВНО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Toshnazarova, U. (2021). Мулоқот маданиятининг ривожланиши психологик омиллари. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2).
- Toshnazarova, U. (2020). Communicative culture of socio-psychological support of professional development of higher edication students. Архив Научных Публикаций JSPI.

- Toshnazarova, U. (2020). Социально-психологические аспекты общения и коммуникативной культуры. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Davurova, G. (2021). OILAVIY MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2).
- Davurova, G. (2021). TALABA-QIZLARDA TAZYIQ VA TAJOVUZGA QARSHI DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ASOSLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2).